

## DARS - TA'LIM JARAYONINING ASOSIY SHAKLI SIFATIDA

*Nukus Davlat Pedagogika instituti 3 – kurs talabasi  
Baxtiyorova Munira Mansur qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dars haqida umumiy tushuncha, darsga qo'yiladigan talablar, dars turlari va ularning o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatishi bo'yicha umumiy ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** dars, ta'lim, aralash dars, yangi material bilan tanish darslari, bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsi, bilimlarni tekshirish darslari.

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro' – e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib – o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib xayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unitmasligimiz kerak deb: takidlaydi birinchi prezidentimiz Islom Karimov. Shunday ekan farzandlarimiz ta'lim – tarbiyasiga e'tiborsiz bo'lmasligimiz lozim. Hozirgi davirda mamlakatimizda, shu jumladan xalq maorif tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'qituvchilar, barcha pedagoglar oldiga o'quvchining bilimlarini yuksak darajada o'zlashtirishi; o'quvchilar mustaqil taffakurini, ular aktivligini rivojlantirish, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning tafakkur, muloqat, o'qish, mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatini taraqqiy ettirish kabi murakkab va ma'sulyatli vazifalarni qo'ymoqda. Shuning uchun hozirgi kunda dars jarayoniga katta e'tibor qaratilmoqda. Dars – ta'lim jarayonining asosiy tashkiliy usuli bo'lib, unda sinf dars tizimining barcha xususiyatlari aks etadi. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Dars ta'lim jarayonining yaxlitligi nuqtayi nazaridan ta'limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o'quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi ta'minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o'qituvchi uchun har bir o'quvchi faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo'lmaydigan ustunligi hisoblanadi. Ta'limning ommaviy shakli sinfdagi jami o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko'zda tutadi. Guruhli shaklida esa o'quvchilar 3—6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Individual shakli har bir o'quvchining alohida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi. Bundan tashqari darsga talablar ham qo'yiladi:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy siyosiy jihatdan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim.

3. Har bir dars albatta turmush bilan, amalyot bilan bog'langan bo'lmog'i lozim.

4. Har bir dars xilma – xil metod, metodik usul va vositalardan keng va umumli foydalangan holda olib borilishi lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soatni tejab undan samarali foydalanish lozim

6. Har bir dars o'quvchi va o'qituvchilarning faolyati birlashgandagina qo'yilgan maqsadga erishish mumkin.

Ta'lim jarayonida darsning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

- aralash darslar:

- yangi materiallar bilan tanishish darslari;

- bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darslari

- o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslari;

- ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;

- bilimlarni tekshirish darslari;

Aralash (kombinatsiyalashga) darslar uy vazifalarini tekshirish va o'quvchilar bilan savol- javob, yangi materialni o'rganish, bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish.

O'quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish yangi materialni o'rganish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash, o'qituvchining yangi material va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tekshirish va mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsida o'qituvchi darsning asosiy mazmunini ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga qaratadi. O'qituvchi asosiy e'tiborini o'rganilgan mavzularni takrorlash tarzida mashg'ulot olib borishga qaratadi.

O'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarida o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarini o'qituvchi o'rganilgan mavzuning, bo'lim yoki o'quv kurslarining yakunida o'tkazadi

Bilimlarni tekshirish (nazorat) darsida o'qituvchi o'quvchilarning fanlar yuzasidan o'zlashtirilgan bilimlarini tekshirish, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini, o'quv materiallarining o'zlashtirishdagi kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarni bajarish yo'llarini belgilab olishiga yordam beradi. Bu kabi dars turlari ta'lim jarayonining yanada samarali bo'lishiga yordam beradi. O'quvchilarning tafakkurini va dunyoqarashini kengaytiradi. Hozirgi kunda eng ko'p qo'llanadigan dars turi bu aralash dars hisoblanadi. Bu dars jarayonini o'qituvchi yaxshi reja asosida olib bormasa, natija bermasligi mumkin. Ya'ni

belgilangan ishlarni bajarish uchun vaqt kamlik qilib qoladi. Darsning samaradorligi deganda darsning ikkita tarkibiy qismini ko'rish mumkin, bular: darsga puxta tayyorgarlik ko'rish va darsni o'tish mahoratidan iborat. Yomon rejalashtirilgan, yetarlicha o'ylanmagan, shoshilinch loyihalangan va o'quvchilar imkoniyatlari bilan uyg'unlashmagan dars yaxshi sifatli bo'lishi mumkin emas. Darsga tayyorlanish - bu butun bir tadbirlar majmuasini ishlab chiqish, ayni paytda pirovard natijani ta'minlaydigan o'quv tarbiya jarayonini tanlashdir. o'qituvchining darsga tayyorlanishi uch bosqichdan iborat: aniqlash, oldindan aytib berish, loyihalash (rejalashtirish). Bu o'rinda o'qituvchining materialni yaxshi bilishi, o'z fani doirasida erkin fikrlay olishi ko'zda tutiladi. Loyihalash (rejalashtirish) - tayyorlanishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, u o'quvchilarni aqliy faoliyatini boshqarish dasturini tuzish bilan tugaydi. Boshqarish dasturi bu - qisqa va aniq, erkin tuzilgan hujjat bo'lib, unda o'qituvchi jarayonni boshqarishning o'zi uchun zarur o'rinlarini qayd qiladi, kimdan va qachon so'rash, qayerda muammoni yuzaga keltirish, mashg'ulotning keyingi bosqichiga qanday o'tish kerakligi, oldindan ko'zlangan qiyinchiliklar paydo bo'lganda jarayonni qanday shaklda qayta qurish mumkin va boshqalar shular jumlasidandir. Demak dars shunday jarayonki o'quvchilar bu jarayonda ta'lim bilan birga tarbiya ham oladi. Bu esa o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklaydi. O'qituvchi esa matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bola tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy ham o'qituvchi mehnatini xolisona baholab: «Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi», «Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila, aylamak emas oson oning haqqin yuz ganj ila», — kabi satrlar bitgan. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. o'qituvchi — sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. o'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbayidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar. Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining memori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviv - siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Bunday natijalarning barchasiga dars jarayonida erishishimiz

mumkin. Buyuk rus olimi Mokorenko shunday deydi: Men tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash jarayonida o'zim ham tarbiyalanib bordim. Bu nimani anglatadi, hozirgi kunning o'qituvchisi o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida o'zi ham tinmasdan izlanishi, faniga oid yangi materiallarga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qitish jarayoni samarali bo'ladi. Xulosa qilib aytish kerakki ta'lim, bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim mohiyat – e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni o'quvchi faolyatini bildiradi. Dars jarayoni ta'lim beruvchi o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faolyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashlari, qobiliyati o'sadi. Yuqorida aytilganidek yaxshi sifatli ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun o'qituvchilar ta'lim turlaridan to'g'ri foydalana olishi va darsni belgilangan qoidalar asosida tashkil qilishi kerak. Dars jarayonida juda ko'p metodikalardan foydalanish kerak emas, ayniqsa kichik yoshdagilar uchun. Bu holat ularni charchatib qo'yadi va o'zlashtirishi pasayadi. Yana darsni tashkillashtirishda o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqish to'g'ri bo'ladi. Ular bilan ko'proq suhbat qurish, mavzu yuzasidan erkin fikrlarini bayon etishlariga imkon berish kerak. Shunda ta'lim berish jarayoni ham qabul etish jarayoni ham kuchayadi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Z.T.Nishonova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “ Rivojlanish psixologiyasi Pedagogik psixologiya “ Toshkent – 2019.
2. B.X.Xodjayev. “Umumiy pedagogika nazaryasi va amalyoti” pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik«Sano-standart» nashriyoti Toshkent – 2017
3. R. Mavlonova, N.Raxmonqulova, N.Voxidova, K. Matnazarova “ Umumiy pedagogika nazariyasi va amalyoti “ Toshkent – 2013
4. A.Xoliqov “ Pedagogik mahorat “ Toshkent “ Iqtisod – moliya “ 2011.
5. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida “Pedagogika “ (Pedagogika nazariyasi va tarixi I qism. Pedagogika nazariyasi) Toshkent – 2010.
6. Islom Karimov “ Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch “ Toshkent – 2008.
7. <https://uz.m.wikipedia.org>